

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar–aprel oylarida

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1302 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **0,1% ga o'sdi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1138 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-aprel oylarida Viloyatda 1651 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,7 % shu davriga nisbatan 35,7 % kamaygan hamda ular ning asosiy ulushi ning soni 513 tani tashki etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1237 ta (5,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 22298 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Samarqand shahrida (31,9 %), Urgut (9,2%), Pasdarg'om (7.6 %) va Samarqand tuman (6.7 %) tumanlarda kuzatilmoxda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 may holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Samarqand viloyati	23656	100,0	22298	100,0
Samarqand sh.	7530	31,8	7103	31,9
Kattaqo'rg'on sh.	828	3,5	809	3,6
tumanlar				
Oqdaryo	906	3,8	840	3,8
Bulung'ur	879	3,7	838	3,8
Jomboy	770	3,3	726	3,3
Ishtixon	1175	5,0	1098	4,9
Kattaqo'rg'on	1127	4,8	1059	4,7
Qo'shrabot	538	2,3	522	2,3
Narpay	876	3,7	853	3,8
Payariq	1265	5,3	1182	5,3
Pastdarg'om	1859	7,9	1693	7,6
Paxtachi	605	2,6	555	2,5
Samarqand	1620	6,8	1503	6,7
Nurobod	656	2,8	573	2,6
Urgut	2091	8,8	2046	9,2
Tayloq	931	3,9	898	4,0


***Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da***




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,2 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbata faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0.6% ga kamayganini kursatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,5 % savdoda, 18,2 % sanoatda, 8,4 % qurulishda, 7,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,3 % tashish va saqlash, 2,3 % axborot va aloqa, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




### **Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-aprel oylarida 1651 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Samarqand shahrida (487 ta), Samarqand tumani(149 ta), Pasdarg'om tumani (109 ta) va Kattaqurg'on shahrida(104 ta) tashkil etilgan. Eng kami Paxtachi (28 ta), Narpay (35 ta) hamda Qushrabot (48 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (354 ta), sanoatda (344 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (234 ta) va qurilishda (213 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (27 ta), tashish va saqlashda (41 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (50 ta) tashkil etilganligi kuzatilmogda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar (tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha) yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-aprel holatiga.	2018 yil yanvar-aprel holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>1581</b>	<b>1651</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	217	234
Sanoat	446	344
Qurilish	130	213
Savdo	340	354
Tashish va saqlash	58	41
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	183	154
Axborot va aloqa	42	27
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	29	50
Boshqa turlari	136	234

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi boshqa turlarida (-2,0 f.p), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,4 f.p) va savdoda (-0,1 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,5 f.p.), qurulish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.) hamda tashish va saqlashda (+0,1 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.05.2018 y.	01.05.2017 y.	farqi (+)
Boshqa turlari	30,5	32,5	-2,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,3	3,7	-1,4
Axborot va aloqa	1,7	1,8	-0,1
Savdo	22,5	22,6	-0,1
Tashish va saqlash	3,3	3,2	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,0	6,4	0,6
Qurilish	8,4	7,7	0,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,1	5,4	0,7
Sanoat	18,2	16,7	1,5

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 may holatiga 17325 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4630 ta, oilaviy korxonalar – 1827 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10358 ta, aksiyadorlik jamiyatları – 28 tani va boshqalar 482 tani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 317 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 51 taga yoki 19,0% ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 243 tasi qo'shma korxonalar, 74 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahar 168 ta (53,0 %), Urgut tumani 38 ta (12,0 %) va Jonboy tumani 25 ta (7,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qushrabod tumani 1 ta (0,3 %), Kattaqurg'on tumani 2 ta (0,6 %), Ishtixon va Narpay tumanlari 3 tadan (0,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalg etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda



2018 yil 1 may holatiga faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'p sanoatda 205 ta (64,7 %), savdoda 45 ta (14,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 20 ta (6,3 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 19 ta (5,9 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 3 ta (0,9 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, va tashish va saqlashda 4 ta (1,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda –7 ta (2,2 %) va qurilishda 10 ta (3,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### **Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



2018 yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 38 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga ko'paygan yoki 2,9 baravarga oshgan.


Bunda, Turkiya Respublikasi – 9 ta, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Koreya Respublikasi – 5 ta, Ukraina-2 ta va Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprel oylarida) birlikda**



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 11 ta, sanoatda 9 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va qurilishda 7 ta va boshqa faoliyat turlarida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 may holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17207 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 10,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 5903 tasi (34,3 %) Samarqand shahriga, Urgut tumani 1638 tasi (9,5 %), Pasdarg'om tumani, 1264 tasi (7,3 %) Samarqand tumani 1241 tasi (7,2%) xissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar 4983 (29,0%) – savdoda, 4025 tasi (23,4 %) - sanoatda, 1870 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1531 tasi (8,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1343 tasi (7,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 704 tasi (4,1 %) tashish va saqlashda, 365 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 405 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1981 tasi (11,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-aprel oylarida 1532 dan oshiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,9 % ga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahrida (460 ta), Samarqand tumanida (145 ta), Pasdarg'om tumani va Kattaqurg'on shaxarda (99 ta) va Kattaqurg'on tumanida (88 ta), Paxtachi tumanida (27 ta ), Narpay tumanida (32 ta ), Qushrabet tumanida (41 ta )ni tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (354 ta), sanoatda (344 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (234 ta) va qurilishda (213 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (27 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (41 ta) hamda tashish va saqlashda (50 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 may holatiga 1898 tani tashkil etib, ulardan 1827 tasi yoki 96,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha 37,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 34,2 % yoki 625 tasi sanoat, 26,7% yoki 487 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,2 % yoki 332 tasi savdo, 8,9 % yoki 163 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 22 tasi qurilish, 1,8 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,9 % yoki 145 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Samarqand viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: **F.Zulfuqorov**  
(0371) 230-85-42,43



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan**